

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.09.2020. K.82.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XABIBULLAYEVA NOZIMA FAZLIDDIN QIZI

**POLIAMINOSAXARIDLAR ASOSIDA YANGI HOSILALAR:
SINTEZI, TUZILISHI VA FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI**

**02.00.03 - Organik kimyo
02.00.10 - Bioorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on chemical
sciences**

Xabibullayeva Nozima Fazliddin qizi

Poliaminosaxaridlar asosida yangi hosilalar: sintezi, tuzilishi va fizik- 5
kimyoviy xossalari

Хабибуллаева Нозима Фазлиддин кизи

Новые производных полиаминосахаридов: синтез, строение и 21
физико-химические свойства

Khabibullaeva Nozima

New derivatives based on polyaminosaccharides: synthesis, structure, and 39
physicochemical properties

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 42

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.09.2020. K.82.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XABIBULLAYEVA NOZIMA FAZLIDDIN QIZI

**POLIAMINOSAXARIDLAR ASOSIDA YANGI HOSILALAR:
SINTEZI, TUZILISHI VA FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI**

**02.00.03 - Organik kimyo
02.00.10 - Bioorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/K533 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.cspi.uz.ilmiy-kengash) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xaitbayev Alisher Xamidovich

Kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Maxsumov Abduxamid G‘ofurovich

Kimyo fanlari doktori, professor

Axmedov Oliy Ravshanovich

Kimyo fanlari falsafa doktori, katta ilmiy hodim

Yetakchi tashkilot:

Toshkent farmatsevtika instituti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.09.2020.K.82.02 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2023-yil «__» _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (0370) 716-68-05; faks: (0370) 716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№__ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111720, Toshkent viloyati Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (0370) 716-68-05; faks: (0370) 716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2023-yil «__» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

O.E. Ziyadullayev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, k.f.d., dotsent

G.Q. Otamuxamedova

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash ilmiy kotibi, k.f.f.d. (PhD)

A.K. Abdushukurov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo‘jaligi, tibbiyot, farmatsevtika va boshqa turli sohalarda qo‘llaniluvchi tabiiy polimerlarga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Jumladan biopolimerlar orasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan xitin va uning muhim hosilasi xitozan asosida olingan mahsulotlarga talabning ko‘payishi, yangi xomashyo manbaalarini izlash va tahlil qilishga bo‘lgan qiziqishning ortishiga olib kelmoqda. Shu o‘rinda qisqichbaqalar va zamburug‘lardan keyingi o‘rinda hasharotlardan istiqbolli va barqaror manbaa sifatida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda xitin va xitozanning yangi hosilalarini olish, biologik faolliklarini o‘rganish va ishlatilish sohasini kengaytirish yuzasidan keng qamrovli tadqiqotlar bajarilmoqda. Bu borada eruvchanlik xossalarini oshirish maqsadida N-alkil va N-atsil hosilalarini sintez qilish, biologik faolliklarini oshirish, qo‘llanilish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida biogen elementlar bilan kompozitlarini olish, ularning fizik-kimyoviy xossalari, tarkibi va tuzilishini aniqlashga alohida e‘tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda dunyo bozorida raqobatbardosh yangi turdagi kimyoviy moddalar sintez qilishda mahalliy xomashyo va chiqindilardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishda mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish, import o‘rnini bosuvchi birikmalarni olish usullarini yaratish, ulardan farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi, kimyo va atrof-muhitni yaxshilashda ilmiy izlanishlar olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-yanvardagi «O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risida»gi 16-sonli qarorida uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan hamda mavjud tabiiy, mineral xomashyo, moliyaviy, moddiy, mehnat va boshqa resurslardan oqilona foydalanish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida «Mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish, prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o‘zlashtirish, ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta‘minlash¹» ga qaratilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, xitozan ishlab chiqarish uchun xomashyo bazasini kengaytirish, xitozanning yangi hosilalarini sintez qilish texnologiyalarini ishlab chiqish, ularning tarkibi, tuzilishi, fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash, samarali biologik faol moddalarni yaratishga yo‘naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar muhim amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2911-son «Respublika farmatsevtika sanoatini jadal rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarori, 2022-yil 12-oktabrdagi PQ-392-son «Sanoat ishlab chiqarishida xomashyo uzluksizligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha qulayliklarni yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarori,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» gi PF-4947-sonli Farmoni.

2022-yil 24-yanvardagi PQ-99-son «Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida» qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. Kimyo, kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hozirgi kunda jahonning turli mamlakatlarida qisqichbaqasimonlar, zamburug'lar, hasharotlardan xitin, xitozan olish va ularning modifikatsiyasi, biologik faolliklari, ishlatilish sohaslarini aniqlashga doir tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, xorijlik olimlar – xitozan asosida biotibbiyotda qo'llash uchun mikro- va nanoo'lchamli xitozan zarralarini olishda (A.C.Jayasuriya va uning jamoasi), gen injeneriyasida qo'llash uchun A.V.Oliveira, G.A.Silva, yaralarni bitiruvchi vositalar olishda M.B.Dreifke, A.A.Jayasuriya; dorilar prolongatsiyasida qo'llash uchun tabletkalar olishda B.Sarmiento, J. Neves, K.J. Tangso va boshqalar, membranalar olishda W.Y.Yang, M.Thirumavalavan, J.F.Lee, gidrogellar olishda A.Trapani, A.Lopedota, M.Franco, M.J.Alonso, nanozarralar olishda A.Chaudhury, S.Das, mikrozaralar olishda V.P.Mantripragada; xitozan asosida kompozitlar olish va xossalarini o'rganish M.E.I.Badawy, X.Wang, S.Kumar-Krishnan, A.Mishra, A.Annamalai; alkil- va atsil-, sulfo- hosilalarini olish K.Kurita, L.M.Champagne, S.Hirano, M.Zhang, Z.Zhang, H.Sashiwa, biologik faolliklarini o'rganishda M.Nishimura, I.Sugiyama, Y.Murata, W.K.Jung, S.Sellimi, M.Rinaudo izlanishlar olib borishgan.

Respublikamizda xitin va xitozan kimyosi, tuzilishi, ishlatilishi va biologik faolliklarini o'rganish sohasida S.Sh.Rashidova, N.R.Voxidova, A.A.Ataxanov, V.O.Kudyshkin, N.Sh.Ashurov, R.Yu.Millusheva, A.K.Baykulov, G.A.Ixtiyarova, F.M.Nurutdinova va boshqalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Ular tut ipak qurti g'umbagi (*Bombyx mori*) dan xitozan olish va u asosida qishloq xo'jaligida urug'larga ishlov berishda ishlatiluvchi polimer preparatlari («UZXITAN»), nanoo'lchamli xitozan va uning kompozitlari, nanotolalar, karboksimetillangan xitozan hosilasi, sintetik polimerlar bilan kompozitlarini olish, biologik faolliklari (bakteritsid, fungitsid, gematologik) ni o'rganish; termik kuyish jarohatlarida xitozan hosilalaridan regeneratsion vosita sifatida foydalanish; *Apis mellifera* dan xitozan olish va undan olingan kompozitlarning antibakterial xossalarini o'rganishda o'z hissalarini qo'shishgan.

Mazkur tadqiqotlarda xitozanning alkil, atsil hosilalari va kompozitlari, xitozanning gidroliz mahsuloti bo'lgan glyukozamin va uning hosilalarini olish yuzasidan tadqiqotlar yetarli darajada o'rganilmagan. Shuning uchun ushbu reaksiyalarni qiyosiy o'rganish mahsulotlar tuzilishini qator fizik tadqiqot usullari yordamida aniqlash, istiqbolli moddalarning maqsadli sintezini amalga oshirish yangi va biologik faol birikmalar yaratish nuqtai nazaridan maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti

O‘zbekiston Milliy universiteti Organik sintez va amaliy kimyo kafedrasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Tabiiy birikmalardan biologik faol moddalar ajratib olish” mavzusidagi fundamental izlanishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mahalliy xomashyo hisoblangan ayrim pardaqanotlilar tarkibidan xitin undan xitozan olish, optimallashtirish va modifikatsiyalash yordamida yangi hosilalarini sintez qilish, tuzilishi va xossalari aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Respublikada keng uchraydigan tabiiy manbaalar (*Apis mellifera*, *Vespa Orientalis* va *Vespula Germanica*) tarkibidan xitin, undan xitozan olish jarayonini optimallashtirish va olingan xitozanning deatsetillanish darajasi, molekulyar massasini aniqlash;

xitozanning aldegidlar, alkil galogenidlar bilan N-alkil hamda kislota anhidridlari bilan N-atsil hosilalarini sintez qilish, xitozanni gidroliz qilish orqali glyukozamin olish va uning Shiff asoslarini sintez qilish;

reaksiyaning borishiga, mahsulot unumiga ta’sir etadigan asosiy omillar – harorat, erituvchi va reaksiya davomiyligini aniqlash hamda maqbul sharoitlarini topish;

xitozan asosida ayrim biogen elementlar bilan kompozitlar olish, tuzilishi va xossalari o‘rganish;

olingan barcha moddalarning tarkibi va tuzilishini zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida tasdiqlash;

yangi sintez qilingan birikmalarni amaliyotga joriy qilish sohalarini aniqlash.

Tadqiqot ob’ekti sifatida mahalliy xomashyo *Apis mellifera*, *Vespa Orientalis* va *Vespula Germanica* lar asosida olingan xitin, xitozan, hamda glyukozamin, aldegidlar, alkil galogenidlar, kislota anhidridlari olingan.

Tadqiqotning predmetini xitozanning N-alkil, N-atsil hosilalari, glyukozamin va u asosida olingan Shiff asoslari, xitozanning biogen elementlar bilan olingan kompozitlari tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Spektroskopiya (UB-, IQ-, ^1H - YaMR, ^{13}C - YaMR, EDX), skanerlovchi elektron mikroskopiya, rentgen diffraksiya, dinamik yorug‘lik tarqalishi, termogravimetrik analiz, differensial skanerlovchi kalorimetriya, induktiv bog‘langan plazmalı mass-spektrometriya, kvant-kimyoviy hisoblashlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor mahalliy xomashyo manbaalari tarkibidan xitin va undan yuqori unumda quyi molekulyar og‘irlikdagi, deatsetillanish darajalari yuqori bo‘lgan xitozan olish jarayonining qulay sharoitlari aniqlangan;

xitozan asosida glyukozamin olingan, jarayonlarning borishiga ta’sir etuvchi omillar aniqlangan, glyukozamin asosida Shiff asoslari sintez qilingan;

xitozan asosida aldegidlar, alkil galogenidlar bilan N-alkil hosilalari, kislota anhidridlari bilan N-atsil hosilalari sintez qilingan, jarayonlarning borishiga ta’sir etuvchi omillar aniqlangan va ularni kimyoviy tuzilishlari aniqlangan;

xitozan asosida mikro o‘lchamga ega kumushli, nanoo‘lchamga ega selenli kompozitlari olingan va ularning tarkibi, xossalari, terini regeneratsiya qilish

xossalari turli fizik-kimyoviy va biologik usullar yordamida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

respublikada keng uchraydigan xomashyo manbaalari (*Apis mellifera*, *Vespa Orientalis* va *Vespula Germanica*) tarkibidan xitozan olish jarayonida deminerallanish bosqichida olingan elyuat tarkibini tahlil qilish orqali arilar xitin qoplami tarkibida Ca, Na, K, P, Mg kabi elementlar yuqori miqdorda uchrashi aniqlangan;

xitin, xitozan va uning asosida sintez qilingan kompozitsion materiallarning terini regeneratsiya qilish xossalari tekshirilganda, CS-Se kompozitining boshqa moddalarga nisbatan tezroq terini regeneratsiyalashi aniqlangan.

immobillangan xitozan sorbentlari olingan va atrof-muhit ob'ektlari tarkibidagi mis (II) ionlarini tahlil qilish maqsadida laboratoriya amaliyotida sinovdan o'tkazilgan va sorbent sifatida foydalanish mumkinligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Spektroskopiya (UB-, IQ-, ¹H- YaMR, ¹³C- YaMR, EDX), skanerlovchi elektron mikroskopiya, rentgen diffraksiya, dinamik yorug'lik tarqalishi, termogravimetrik analiz, differensial skanerlovchi kalorimetriya, induktiv bog'langan plazmali mass-spektrometriya, kvant-kimyoviy hisoblashlar va boshqa tadqiqot usullaridan olingan natijalar asosida ishonchli tarzda tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilk bor mahalliy xomashyo manbaalari asosida xitozanning turli tarkibli alkillovchi, atsillovchi agentlar ta'sirida 9 ta N-alkil, 4 ta N-atsil hosilalari, xitozanni gidrolizlab glyukozamin va uning 3 ta Shiff asoslarini sintez qilish hamda, Se⁴⁺ va Ag⁺ biogen elementlari bilan kompozitlari olinishi, IQ spektrlari, rentgen diffraktogrammalari, skanerlovchi elektron mikroskopiya tasvirlari, nanozarralar o'lchamlari, zeta potensial qiymatlari, termik barqarorliklari o'zgarishlari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xitozan asosida olingan selenli kompozitlar terini regeneratsiyalovchi vosita sifatida foydalanish mumkinligi, xitozan asosida olingan granulalar oqava suvlarni og'ir metall ionlaridan tozalash maqsadida immobillangan metal ionlarini tashuvchi sifatida qo'llanilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Respublikamizda keng tarqalgan xomashyo manbaalari asosida poliaminosaxaridlardan xitin va xitozanni ajratib olish, modifikatsiyalash hamda qo'llanilishi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Apis melliferadan olingan xitozan uchun tashkilot standarti O'zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati Ekspertlar guruhi tomonidan tasdiqlangan (S 200845944-109:2022 sonli tashkilot standarti). Natijada kimyo laboratoriyalarida mis ionlarini aniqlovchi ingibitorlar va immobilizatsiyalangan organik reagentlar bilan tashuvchilar sifatida foydalanish imkonini beradi.

immobilizatsiya qilingan xitozan granulalari «O'zbekneftgaz» AJ «Muborak gazni qayta ishlash zavodi» da amaliyotga joriy etilgan («O'zbekneftgaz» AJ «Muborak gazni qayta ishlash zavodi» tomonidan berilgan 13.07.2022 yildagi

№ 814/GK-07 sonli ma'lumotnomasi). Natijada chiqindi suvlardan mis (II) ionlarini ajratib olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 16 ta, jumladan 9 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlar va konferensiyalarda ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola respublika, 1 ta maqola xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Poliaminosaxaridlar: xitin va xitozan. Tabiatda tarqalishi, fizik-kimyoviy xossalari, biologik faolliklari va ishlatilishi (adabiyotlar tahlili)»** deb nomlangan birinchi bobida poliaminosaxaridlar va ularning eng muhim vakillari, tabiatda tarqalishi, fizik-kimyoviy xususiyatlari, biologik faolliklari va eng muhim ishlatilish sohalari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, biologik faolliklari yuqori va unga bog'liq ravishda foydalanish sohalari keng bo'lgan xitin va xitozanga bo'lgan talab hamda qiziqishlar kundan-kunga ortib bormoqda. Shuningdek, xitozanning biologik faolliklari va fizik-kimyoviy xossalari ekstraksiya sharoiti, xomshyo manbaasiga bog'liq ravishda bir-biridan farqlanishi aniqlangan. Xitozan tarkibidagi reaksiyon faol guruhlari (-OH, -NH₂) hisobiga kimyoviy modifikatsiyalanadi va bunda xitozan molekulasidagi amino yoki gidroksil guruhga gidrofil guruh kiritiladi, natijada xitozanning kristalligi va H-bog'lanishi buziladi. Kimyoviy modifikatsiyalash xitozanning faqat fizik-kimyoviy xossalarini oshiribgina qolmay, uning muhim xossalarini kuchaytirish orqali foydalanilish sohasini ham kengaytirishi tadqiqotlar natijalari orqali bayon qilingan.

Dissertatsiyaning **«Xitin, xitozan, xitozanning N-alkil va N-atsil hosilalari hamda kompozitlari olinishi, ularning tuzilishini tahlil qilish (olingan natijalar tahlili)»** deb nomlangan ikkinchi bobida tabiiy xomashyolar (*Apis mellifera*, *Vespa Orientalis*, *Vespula Germanica*) tarkibidan xitin va undan xitozan, xitozanni gidroliz qilish orqali glyukozamin olish va xitozan asosida N-alkil va N-atsil hosilalari sintez jarayonini optimallashtirish, shuningdek, Se va Ag

elementlari bilan kompozitlarini olish jarayonlari va olingan moddalar tuzilishi va tarkibini turli fizikaviy tadqiqot usullari yordamida tahlil qilish bayon qilingan.

Tabiiy xomashyolar asosida xitozan olish jarayonini quyidagi 1-rasm yordamida tasvirlash mumkin.



1-rasm. Xitozan olish jarayoni

Rasmda keltirilgan 1-bosqich *deminerallanish bosqichi* bo‘lib, bunda olingan namuna HCl eritmasi bilan ishlov berilganda turli xildagi minerallar va kislota eritmasida erishi mumkin bo‘lgan moddalar ajralib chiqadi. Bu bosqichda olingan moddalar miqdoriga kislota konsentratsiyasi, harorat va vaqtning ta’siri o‘rganildi. Tajribalar jarayonida optimal sharoit sifatida tanlab olingan 3% li HCl, 60 minut va 60 °C haroratda xomashyo namunalarini deminerallanganda olingan mahsulotlar miqdori: *Apis mellifera* 80,6 gr, *Vespa orientalis* 82,4 gr, *Vespula germanica* 83,2 gr ni tashkil qilishi aniqlandi.

Deminerallash bosqichida olingan elyuat tarkibi elementar analiz qilinganda xitin qoplami tarkibida 40 ga yaqin elementlar mavjud bo‘lishi, ularning miqdorlari tahlil uchun olingan xomashyolarga bog‘liq ravishda farqlanishi, elyuatning tarkibida P, K, Na, Ca, Mg, Al elementlari juda yuqori miqdorda uchrashi, Nb, Ta, Re, Ge kabi elementlar umuman uchramasligi aniqlandi.

Deminerallanish mahsuloti IQ-spekri natijalari quyidagicha: $\nu_{O-H}=3277 \text{ sm}^{-1}$, $\nu_{C-H}=2922 \text{ sm}^{-1}$, $\nu_{C=O}=1633 \text{ sm}^{-1}$, $\nu_{\text{amid II}}=1516 \text{ sm}^{-1}$.

2-bosqich *deproteinlash bosqichi* bo‘lib, bunda olingan namuna NaOH eritmasi bilan ishlov berilganda xitin qoplami tarkibida uchrovchi oqsil moddalar ajralib chiqadi va xitin hosil bo‘ladi. Bu bosqichda olingan moddalarning unumiga kislota konsentratsiyasi, harorat va vaqtning ta’siri o‘rganildi. Tajribalar jarayonida optimal sharoit sifatida tanlab olingan 6% li NaOH, 6 soat va 80 °C haroratda xomashyo namunalarini deproteinlanganda, olingan mahsulotlar unumi: *Apis mellifera* 12,8%, *Vespa orientalis* 11,4%, *Vespula germanica* 10,9% ni tashkil qilishi aniqlandi.


3-bosqich *depigmentatsiya bosqichi* bo‘lib, bunda olingan namuna H₂O₂ eritmasi bilan ishlov berilganda xomashyo tarkibidagi pigmentlar ajralib chiqadi. Bu bosqichda olingan moddalarning unumiga H₂O₂ konsentratsiyasi, harorat va vaqtning ta’siri o‘rganildi. Tajribalar jarayonida optimal sharoit sifatida tanlab olingan 3% li H₂O₂, 5 soat va 40 °C haroratda namunalar depigmentatsiyalanganda, mahsulotlar unumi: *Apis mellifera* 9,8%, *Vespa orientalis* 8,9%, *Vespula germanica* 7,6% ni tashkil qilishi aniqlandi.

Depigmentatsiyalash mahsuloti IQ-spektri natijalari quyidagicha: $\nu_{OH}=3433 \text{ sm}^{-1}$, $\nu_{N-H}=3102-3260 \text{ sm}^{-1}$, $\nu_{C-H}=2930$ va 2877 sm^{-1} , $\nu_{C=O}=1656$ va 1626 sm^{-1} , $\delta_{N-H}=1553 \text{ sm}^{-1}$, $\delta_{CH_2}=1424 \text{ sm}^{-1}$, $\nu_{C-O-C} =1154$ va 1069 sm^{-1} ,

ν_{as} piranoza xalqa=1113 sm^{-1} , $\nu_{\text{C-O}}$ =1009 sm^{-1} , ν_{CH} piranoza xalqa=894 sm^{-1} .

4-bosqich deatsetillanish bosqichi bo'lib, bunda olingan xitin tarkibidagi atsetamid guruhni tashkil etuvchi atsetil guruhlar konsentrlangan NaOH eritmasi ta'sirida ajralib chiqishi natijasida xitozan hosil bo'ladi. Bu bosqichda olingan moddalarning unumiga ishqor konsentratsiyasi, harorat va vaqtning ta'siri o'rganildi. Tajribalar jarayonida optimal sharoit sifatida tanlab olingan 40% li NaOH, 6 soat va 90 °C haroratda namunalarni deatsetillanganda, olingan mahsulotlar unumi: *Apis mellifera* 5,3%, *Vespa orientalis* 4,8%, *Vespula germanica* 4,4% ni tashkil qilishi aniqlandi.


Deatsetillanish mahsuloti IQ-spekri natijalari quyidagicha: ν_{OH} =3353 sm^{-1} , $\nu_{\text{N-H}}$ =3102-3260 sm^{-1} , $\nu_{\text{C-H}}$ =2918 va 2872 sm^{-1} , $\nu_{\text{C=O}}$ =1649 $\delta_{\text{N-H}_2}$ =1588 sm^{-1} , δ_{CH_2} =1420 sm^{-1} , $\nu_{\text{C-O-C}}$ =1149 va 1060 sm^{-1} , $\nu_{\text{C-O}}$ =1027 sm^{-1} , ν_{CH} piranoza xalqa = 893 sm^{-1} .




2-rasm. Xitozan kimyoviy strukturasi

Xitozan ^1H -YaMR natijalari quyidagicha: H_1 (H_1 of GluNAc yoki H-1 =4.77-4.85, H_1 (H_1 of GluNH₂ yoki H-1 =4.85-4.97, H_2 (H_2 of GluNH₂ yoki H-2 =3.25, H_3 (H_3 of GluNH₂ yoki H_3 =3.80-3.87, H_3 , H_4 , H_5 , H_6 , H_6 =3.80-4.04, $\text{H}_{\text{N-COCH}_3}$ =2.08, CH_3COOH (AcOH)=2.16, D_2O (d = 4.7 m.u.) va CD_3COOD (d = 2.05 and 8.5 m.u.).

Xitozan ^{13}C YaMR natijalari quyidagicha: C_1 =97.63, C_2 =55.73, C_3 =74.70, C_5 =76.26, C_6 =59.84, N-CH_3 (C_7) = 21.03, N-C=O (C_8) = 178.92.



a)




b)

3-rasm. *Apis mellifera* dan olingan xitin (a) va xitozan (b) ning XRD diffraktogrammalari

Apis melliferadan olingan xitin va xitozan diffraktogrammalaridan (3-rasm) ko'rishimiz mumkinki, xitin deatsetillanishi natijasida $2\theta = \sim 10$ va 19.79° dagi o'tkir uchli cho'qqilarning biroz kengayishi va intensivligining kamayishi xitinga nisbatan xitozan kristallik darajasi kamayganligini, ya'ni molekulararo va ichki molekulyar vodorod bog'lanishlar buzilganligini ko'rsatadi. Buni quyidagi natijalar: kristallik darajasi 22,70% dan 13,60% ga kamayishi hamda ortorombik kristall fazadan tetragonal fazaga o'zgarishi orqali ham kuzatishimiz mumkin.

Olingan SEM tasvirlaridan (4-rasm) ko'rishimiz mumkinki, xitin

deatsetillanishi natijasida olingan xitozanning sirt yuzalarida modifikatsiyalanish yoki sorbsion xossalarini oshirishi mumkin bo'lgan g'ovaklar hosil bo'lgan. Bundan, xitin deatsetillanishi natijasida atsetil guruhlar chiqib ketishi bilan bir qatorda uning sirt yuzalarida ham o'zgarishlar sodir bo'lishi aniqlandi.



4-rasm. *Apis mellifera* dan olingan xitin (a) va xitozan (b) ning SEM tasvirlari

Olingan xitozan deatsetillanish darajasini potensiomtrik titrlash usuli yordamida tahlil qilinganda deatsetillanish vaqti ortishi bilan deatsetillanish darajasi ortishi aniqlandi: 1 soat-70%, 2 soat-73%, 3 soat-80%, 4 soat-86%. Shuningdek, 4 soat davomida deatsetillangan xitozan deatsetillanish darajasi IQ-spektroskopiya (~85%) va element analizi (90%) usullarida tahlil qilingandagi natijalarga mos kelishi aniqlandi.

Olingan xitozan namunalariining molekulyar massasi viskozimetrik usulda tahlil qilinganda deatsetillanish vaqti ortishi bilan molekulyar massalari kamayishi aniqlandi: 1 soat – 48,62 kDa, 2 soat – 38 kDa, 3 soat – 23,5 kDa, 4 soat – 16 kDa.

Olingan xitozanni gidroliz qilish orqali glyukozamin gidroksloridini olishda mahsulot unumiga HCl konsentratsiyasi va vaqtning ta'siri o'rganildi. Tajribalar jarayonida optimal sharoit sifatida tanlab olingan 30% li HCl, 6 soat va 90 °C haroratda olingan mahsulot unumi 24,2% ni tashkil qilishi aniqlandi.


Glyukozamin IQ-spektri natijalari quyidagicha: $\nu_{O-H}=3360 \text{ sm}^{-1}$, $\nu_{N-H}=3283 \text{ sm}^{-1}$, $\nu_{C-H}=2943$ va 2884 sm^{-1} , $\nu_{C=O}=1649$, $\delta_{as \text{ N-H}_2}=1615 \text{ sm}^{-1}$, $\delta_{s \text{ N-H}_2}=1583$ va 1537 sm^{-1} , $\delta_{CH_2} = 1421 \text{ sm}^{-1}$, $\nu_{C-O}=1031 \text{ sm}^{-1}$, δ_{CH_3} va ν_{C-O} (birlamchi OH guruhdagi) = 913 sm^{-1} , ν_{CH} piranoza xalqa = 894 sm^{-1} .

Tadqiqotimiz davomida olingan glyukozamin gidroksloridining 3 ta aromatik aldegidlar bilan Shiff asoslari sintez qilindi. Bunda reaksiya unumlari: salitsilaldegid=78%, indol-3-aldegid=69%, 6-nitro-2,4-digidro-1,3-benzodioksin-8-karbaldegid=74% ni tashkil qildi.

Glyukozaminning salitsilaldegid bilan hosil qilgan Shiff asosi IQ-spektri natijalari quyidagicha: $\nu_{O-H} = 3378 \text{ sm}^{-1}$, $\nu_{C-H} = 2965, 2937$ va 2882 sm^{-1} , $\nu_{C=N} = 1627$, $\delta_{CH_2} = 1409 \text{ sm}^{-1}$, $\nu_{C-O} = 1005 \text{ sm}^{-1}$, δ_{CH_3} va ν_{C-O} (birlamchi OH guruhdagi) = 914 sm^{-1} , ν_{CH} piranoza xalqa = 894 sm^{-1} .

Xitozanning 4 ta aldegid bilan N-alkil hosilalari sintez qilindi. Butanal bilan N-alkillanish jarayonining optimal sharoitini aniqlash uchun reaksiya mahsulotining unumiga erituvchi tabiati, vaqt va haroratning ta'siri o'rganildi. Bunda, qutbliligi turlicha bo'lgan metanol, etanol va izopropanol erituvchilaridan foydalanildi. Tajribalar jarayonida optimal sharoit sifatida tanlab olingan etanol erituvchisida, 6 soat va 50 °C haroratda 57,8% unum bilan N-butil xitozan sintez qilindi. Shuningdek, atsetaldegid (66%), p-nitro benzaldegid (59,2%) hamda


p-metoksi benzaldegid (54,6%) bilan N-alkil hosilalari sintez qilindi. Xitozanning aldegidlar bilan N-alkillanish reaksiyasi mexanizmi quyida keltirilgan (5-rasm):



5-rasm. Xitozanning aldegidlar bilan N-alkillanish reaksiyasi

Xitozanning butanal bilan N-alkillanish mahsuloti IQ-spekri natijalari quyidagicha: $\nu_{O-H}=335 \text{ sm}^{-1}$, $\nu_{N-H}=3290 \text{ sm}^{-1}$, $\nu_{C-H}=2917$ va 2848 sm^{-1} , $\nu_{C=O}=1649$, $\delta_{N-H2} =1582 \text{ sm}^{-1}$, $\delta_{CH2}=1462 \text{ sm}^{-1}$, $\nu_{C-O-C}=1163$ va 1050 sm^{-1} , $\nu_{C-O} =1025 \text{ sm}^{-1}$, δ_{CH3} va ν_{C-O} (birlamchi OH guruhdagi) = 930 sm^{-1} , ν_{CH} piranoza xalqa = 894 sm^{-1} .

Xitozanning 5 ta alkilgalogenid bilan N-alkil hosilalari sintez qilindi. Butil bromid bilan N-alkillanish jarayonining optimal sharoitini aniqlash uchun reaksiya mahsulot unumiga erituvchi tabiati, vaqt va haroratning ta'siri o'rganildi. Bunda, qutbliligi turlicha bo'lgan metanol, atseton, DMFA va DMSO erituvchilari tanlab olindi. Tajribalar jarayonida optimal sharoit sifatida tanlab olingan DMSO erituvchisida, 4 soat va $70 \text{ }^\circ\text{C}$ haroratda 61.0% unum bilan N-butil xitozan sintez qilindi. Shuningdek, pentil bromid (59,8%), geksil bromid (58,5%), butil xlorid (60%) hamda pentil xlorid (59,2%) bilan N-alkil hosilalari sintez qilindi. Xitozanning alkilgalogenidlar bilan N-alkillanish reaksiyasi mexanizmi quyida keltirilgan (6-rasm):




6-rasm. Xitozanning alkil galogenidlar bilan N-alkillanish reaksiyasi

Xitozanning butil bromid bilan N-alkillanish mahsuloti IQ-spekri natijalari quyidagicha: $\nu_{O-H}=3364 \text{ sm}^{-1}$, $\nu_{N-H} =3298 \text{ sm}^{-1}$, $\nu_{C-H}=2918$ va 2874 sm^{-1} , $\nu_{C=O}=1654$, $\delta_{N-H2} =1590 \text{ sm}^{-1}$, $\delta_{CH2} =1421 \text{ sm}^{-1}$, $\nu_{C-O-C}=1150$ va 1058 sm^{-1} , $\nu_{C-O}=1031 \text{ sm}^{-1}$, δ_{CH3} va ν_{C-O} (birlamchi OH guruhdagi) = 944 , ν_{CH} piranoza xalqa = 894 sm^{-1} .


Xitozan tarkibidagi molekulararo va ichki molekulyar H-bog'lanishlar hisobiga yuzaga keluvchi $2\theta=11.55^\circ$ va 20.53° dagi keng diffraksiyon cho'qqilar intensivliklari (3 b-rasm) N-alkillanish natijasida kamayishi kuzatildi. Olingan natijalardan N-alkil guruhlarning birikishi natijasida molekulararo va ichki molekulyar H-bog'lanishlar uzilganligi to'g'risida xulosa qilishimiz mumkin

(7-rasm).



7-rasm. *Apis mellifera* dan olingan xitozanning butanal (a) va butil bromid (b) bilan N-alkillanish mahsulotlari XRD diffraktogrammalari


Xitozanning 4 ta kislota anhidridlari bilan N-atsil hosilalari sintez qilindi. Qahrabo anhidrid bilan N-atsillanish jarayonining optimal sharoitini aniqlash uchun reaksiya mahsuloti unumiga erituvchi tabiati, vaqt va haroratning ta'siri o'rganildi. Bunda, qutbliligi turlicha bo'lgan piridin, DMFA va atseton erituvchilari tanlab olindi. Tajribalar jarayonida optimal sharoit sifatida tanlab olingan DMFA erituvchisida, 6 soat va 60 °C haroratda 52,8% unum bilan N-suksinil xitozan sintez qilindi. Shuningdek, ftal anhidrid (38,6%), malein anhidrid (44,7%) hamda sirka anhidrid (54,1%) bilan N-atsil hosilalari sintez qilindi. Xitozanning kislota anhidridlari bilan N-atsillanish reaksiyasi mexanizmi quyida keltirilgan (8-rasm):



8-rasm. Xitozanning kislota anhidridlari bilan N-atsillanish reaksiyasi


Xitozanning qahrabo anhidrid bilan N-atsillanish mahsuloti IQ-spekri natijalari quyidagicha: $\nu_{O-H}=3360\text{ sm}^{-1}$, $\nu_{N-H}=3288\text{ sm}^{-1}$, $\nu_{C-H}=2924\text{ va }2879\text{ sm}^{-1}$, $\nu_{C=O}=1648$, $\delta_{N-H_2}=1552\text{ sm}^{-1}$, $\delta_{CH_3}=1381\text{ sm}^{-1}$, $\nu_{C-O-C}=1153\text{ va }1064\text{ sm}^{-1}$, $\nu_{C-O}=1033\text{ sm}^{-1}$, $\nu_{CH\text{ piranoza xalqa}}=896\text{ sm}^{-1}$.

Xitozan tarkibidagi molekulararo va ichki molekulyar H-bog'lanishlar hisobiga yuzaga keluvchi $2\theta=11.55^\circ$ va 20.53° dagi keng diffraksiyon cho'qqilar intensivliklari (3 b-rasm) N-atsillanish natijasida (9-rasm) kamayishi kuzatildi. Olingan natijalardan N-atsil guruhlarning birikishi natijasida molekulararo va ichki molekulyar H-bog'lanishlar uzilganligi to'g'risida xulosa qilishimiz mumkin.




9-rasm. *Apis mellifera* dan olingan xitozanning qahrabo anhidrid bilan N-atsillanish mahsuloti XRD diffraktogrammalari

Xitozanning biogen elementlar sinfiga mansub bo'lgan Ag va Se elementlari bilan kompozitlari olindi. Tadqiqotimiz natijasida CS-Se (84% unum) va CS-Ag (82% unum) kompozitlari olindi. Quyida olingan kompozitlar IQ-spektrlari keltirilgan (10-rasm):




a)




b)

10-rasm. *Apis mellifera* dan olingan xitozanning Ag (a) va Se (b) kompozitlari IQ-spektri

Yuqorida keltirilgan xitozanning kumushli kompoziti va xitozan spektrlari (10 a-rasm) o'zaro taqqoslanganda, I(C=ONHR) va (-NH₂) guruhlariga tegishli bo'lgan 1649 va 1588 sm⁻¹ sohadagi yutilish signallarining pastroq 1631 va 1547 sm⁻¹ sohaga siljishi va 1547 sm⁻¹ sohadagi yutilish signali intensivligining sezilarli darajada ortishi kuzatilgan. Shuningdek, 1401 sm⁻¹ sohada yuzaga kelgan intensiv tebranish chastotasi xitozan va Ag o'rtasida elektrostatik tortishuv va Van-der-vaals kuchlari hisobiga Ag va xitozan (-NH₂, -OH) orasida konyugirlanish yuzaga kelishi bilan izohlanadi (11 a-rasm).



11 a-rasm. Xitozanning kumushli kompoziti taxminiy strukturasi




11 b-rasm. Xitozanning selenli kompoziti taxminiy strukturasi

Xitozan va uning selenli kompoziti IQ-spektrlari o'zaro taqqoslanganda, N-H bog'larining valent tebranishidan hosil bo'lgan yutilish signalining 1628 sm⁻¹ sohaga, O-H bog'larining valent tebranishidan hosil bo'lgan yutilish signalining 3362 sm⁻¹ dan 3235 sm⁻¹ sohaga siljishi kuzatilgan. Bu o'zgarishlar Se nanozarralari yuzasida xitozan mavjudligini va xitozan selen nanozarralari yuzasiga -OH guruhlari orqali elektrostatik tortishuv va Van-der-vaals kuchlari hisobiga konyugatsiyalanganligini izohlaydi (11 b-rasm).


Olingan kompozitlar tuzilishi UB-spektroskopiya usulida tahlil qilinganda, kumushli kompozitda $\lambda_{\max} = 403$ nm, selenli kompozitda $\lambda_{\max} = 252$ nm da yutilish maksimumlari kuzatilganligi elementlar (Ag va Se) ning xitozan bilan kompozit hosil qilganligini ifodalaydi.

Xitozan va kompozitlari diffraktogrammalari (12-rasm) o‘zaro taqqoslanganda, $2\theta=11.55^\circ$ va 20.53° dagi keng diffraksion cho‘qqilar intensivliklari kompozitlarda kamayishi kuzatildi va bu ularning amorf tabiati bilan bog‘liq. Kumushli kompozitda 38.40° , 44.48° , 64.59° va 77.51° dagi cho‘qqilar intensivliklari, ayniqsa 38.40° dagi diffraksion cho‘qqi intensivligining ortganligi kumush bog‘langanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, olingan kompozitlarning kristall fazasi kubsimon ko‘rinishga o‘zgarganligini kuzatildi.




12-rasm. *Apis mellifera* dan olingan xitozanning kumushli va selenli kompozitlari XRD diffraktogrammalari

Xitin, xitozan va kompozitlari termogrammalari (13-rasm) tahlil qilinganda, moddalarning termik barqarorligi xitin>xitozan>CS-Se>CS-Ag qatorida kamayib borishi aniqlandi. Termogrammada kuzatilgan dastlabki 40-100 °C dagi massa yo‘qotilishi adsorbsiyalangan va vodorod bog‘lar orqali bog‘langan suvning bug‘lanishi hisobiga, keyingi massa yo‘qotilishi 245-400 °C da glikozid bog‘lar uzilishi hisobiga polimer zanjirining depolimerlanishi va molekula saxarid strukturasi parchalanishi, ya‘ni saxarid xalqalarning degidratlanishi, atsil guruhlarning ajralishi hisobiga yuz bergan.




13-rasm. *Apis mellifera* dan olingan xitin, xitozan hamda xitozan kompozitlarining TGA/DSC termogrammalari

Xitin, xitozan va kompozitlari DSC termogrammalari (13-rasm) tahlil qilinganda, moddalarning 30-150 °C oralig‘ida hosil bo‘lgan endotermik cho‘qqi polimer zanjiriga bog‘langan va yutilgan suvning bug‘lanishi hisobiga kuzatilgan. Xitinning maksimal parchalanish harorati atsetil guruhlarning miqdori va kristallik darajasi yuqoriligi uchun xitinda eng yuqori 383.61 °C da yuz bergan. Moddalarning maksimal parchalanish harorati xitin>xitozan>CS-Se>CS-Ag qatorida kamayib borishi aniqlandi.



a)




b)


14-rasm. Xitozan kumushli kompozitining DLS tahlili

Xitozan-kumushli kompozit o'lchami va barqarorligi dinamik yorug'lik tarqalishi (DLS) usulida tahlil qilinganda, kumushli kompozit o'lchami 479 nm (14 a-rasm), zeta potensial qiymati +40.96 mV (14 b-rasm) ga teng ekanligi aniqlandi.

Xitozan-selenli kompozit o'lchami va barqarorligi tahlil qilinganda (15 a-rasm), o'lchami 86 nm, zeta potensial qiymati +55.6 mV ga teng ekanligi hamda olingan kompozitning barqarorligi selen nanozarralariga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi (15 b-rasm).





a)



b)



15-rasm. Apis mellifera dan olingan xitozan selenli kompozitining DLS tahlili

Xitozan selenli kompozitining sirt yuzasi va elementar tarkibi SEM/EDX usullari yordamida tahlil qilindi (16-rasm). Unga ko'ra selen atomlari xitozan yuzasi bo'ylab turlicha qalinlikda tarqalgan bo'lib, kompozitda tarqalgan selenning normallashtirilgan massa konsentratsiyasi 37,24% ekanligi aniqlandi.




16-rasm. Apis mellifera dan olingan xitozan selenli kompozitining SEM/EDX tahlili

Xitozan kumushli kompozitining sirt yuzasi va elementar tarkibi SEM/EDX usullari yordamida tahlil qilindi (17-rasm). Unga ko'ra kumush atomlari xitozan yuzasida tarqoq joylashgan bo'lib, kompozitda tarqalgan kumushning normallashtirilgan massa konsentratsiyasi 67,73% ekanligi aniqlandi.



17-rasm. *Apis mellifera* dan olingan xitozan kumushli kompozitining SEM/EDX tahlili

Xitozan asosida olingan sorbent sorbsion xossasi sun'iy tayyorlangan Cu^{2+} ionlari eritmasi yordamida o'rganildi. Bunda 0,0125N, 0,025N, 0,05N, 0,1N $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ ning sun'iy tayyorlangan eritmalaridan foydalanildi. Cu^{2+} ionlari sorbsiyasining kinetik egri chiziqlari (18-rasm) dan ko'rishimiz mumkinki, sorbentga yutilgan metal ionlari miqdori quyidagicha bo'lishi aniqlandi: 16,45, 36,31, 72,95, 110,57 mg/g.




18-rasm. *Apis mellifera* dan olingan xitozan sorbentiga Cu (II) ionlarining sorbsiyalanish kinetikasi egri chiziqlari

Cu ionlarini sorbsiyalagan xitozan granulasining IQ-spekri natijalari quyidagicha: $\nu_{\text{O-H}} = 3560 \text{ cm}^{-1}$, $\nu_{\text{C-H}} = 2928$ va 2856 cm^{-1} , $\nu_{\text{C=O}} = 1637 \text{ cm}^{-1}$, $\delta_{\text{CH}_3} = 1376 \text{ cm}^{-1}$, $\nu_{\text{C-O-C}} = 1116 \text{ cm}^{-1}$, $\nu_{\text{C-O}} = 1084 \text{ cm}^{-1}$, $\nu_{\text{C-O}}$ (birlamchi OH guruhdagi) = 940, ν_{CH} piranoza xalqa = 869 cm^{-1} , $\nu_{\text{Cu-O}}$ va $\text{Cu-N} = 600 \text{ cm}^{-1}$.

Glyukozamin va uning Schiff asoslari biologik faolligi *Pass* dasturida online rejimda o'rganilganda, glyukozaminga nisbatan olingan Schiff asoslarining yo'g'on ichak saratoni, melanoma o'simtasi, silga qarshi faolligi hamda apoptoza agonisti bir muncha yuqoriligi aniqlandi. Shuningdek, *AutoDock 4.2* dasturi yordamida yo'g'on ichak saratoni va melanoma o'simtasi oqsili bilan H-bog' hosil qilish orqali faollik ko'rsatish darajasi indol-3-aldegidli Schiff asosida yuqori ekanligi aniqlandi.

Xitozan, kumushli va selenli xitozan kompozitlarining terini regeneratsiyalash xossasi oq kalamushlarda tekshirib ko'rilganda (19-rasm), selenli kompozitning yaralarni bitirishdagi faolligi qolgan namunalarga nisbatan ancha yuqori bo'lishi aniqlandi (1-jadval).



19-rasm. Terini regeneratsiyalash xossasini: kontrol (1), xitozan selenli kompoziti (5) da o'rganish natijalari (a) birinchi kun; b) 7-kun; c) 15-kun).

1-jadval

**Xitozan kompozitlarining yarani bitiruvchi ta'sirini o'rganish
(M±m, n=6)**

Guruh	O'rganish vaqti (kunlar)				
	dastlabki	3	7	10	15
kontrol	26,67 ± 1,02	$\frac{22,92 \pm 0,97^x}{14,1}$	$\frac{19,17 \pm 1,17^x}{28,1}$	$\frac{9,75 \pm 0,82^x}{63,4}$	$\frac{1,79 \pm 0,63^x}{93,3}$
xitozan+Se	26,48 ± 1,12	$\frac{16,58 \pm 1,53^{x,y}}{37,4}$	$\frac{8,0 \pm 0,97^{x,y}}{69,8}$	$\frac{2,58 \pm 0,36^{x,y}}{90,2}$	$\frac{0,42 \pm 0,26^x}{98,4}$

Dissertatsiyaning «Materiallar va metodlar (Tajriba qism)» deb nomlangan uchinchi bobida foydalanilgan reagentlar, tadqiqotni olib borish uchun zarur kimyoviy birikmalar sintezi, tajribalar usullari va o'tkazilgan tajribalarning sharoitlari keltirib o'tilgan.

XULOSALAR

1. Respublikada keng tarqalgan mahalliy xomashyolar (*Apis mellifera*, *Vespa Orientalis*, *Vespula germanica*) asosida xitin, undan esa organik va noorganik reagentlar yordamida yuqori unumda quyi molekulyar og'irlikdagi va deatsetillanish darajalari yuqori bo'lgan xitozan namunalarini olish usuli taklif qilindi («O'zstandart» agentligi tomonidan ro'yxatga olingan (Ts 200845944-108:2022) raqamli tashkilotning standarti olindi). Olingan natijalar istiqbolda xalq xo'jaligining turli sohalarida keng miqyosda foydalanishga xizmat qiladi.

2. Xitozan tarkibida hosil qilingan erkin NH₂ guruhlar hisobiga aldegid va alkil galogenidlar asosida N-alkil hosilalari (umumiy 9 ta), kislota angidridlari asosida N-atsil hosilalari (umumiy 4 ta) sintez qilindi, reaksiyaning borishiga ta'sir qiluvchi omillar (erituvchilar, harorat va vaqt) aniqlandi hamda maqbul sharoitlar

taklif etildi.

3. Xitozanni kislotali muhitda gidroliz qilish orqali yuqori unumda glyukozamin gidroxloridi olindi, reaksiyaning borishiga ta'sir qiluvchi omillar (erituvchilar, vaqt) aniqlandi, maqbul sharoitlar taklif etildi hamda uning Shiff asoslari (umumiy 3 ta) sintez qilindi.

4. Xitozanning kumushli kompozitini olishda NaBH_4 eritmasidan, selenli kompozitini olishda esa askorbin kislotasidan katalizator sifatida foydalanildi va tegishli kompozitlarni yuqori unumlar bilan olish usullari tavsiya etilgan. Rentgen diffraksion usuli yordamida ayrim olingan moddalar (xitin, xitozan, kompozitlar: CS-Ag, CS-Se) ning kristallik darajasi va kristall fazasi tahlil qilinganda, moddalarning kristallik darajasi quyidagi qatorida xitin>CS-Ag>xitozan>CS-Se kamayishi hamda ularning kristall fazasi xitin (orto-rombik), xitozan (tetragonal), CS-Ag va CS-Se da kubsimon bo'lishi aniqlandi.

5. Termogravimetrik tahlil usuli yordamida ayrim olingan moddalar (xitin, xitozan, kompozitlar: CS-Ag, CS-Se) ning termik barqarorligi tahlil qilindi. Olingan natijalarga ko'ra moddalarning termik barqarorligi xitin>xitozan>CS-Se>CS-Ag qatorida kamayib borishi aniqlandi. Shuningdek, yuqorida keltirilgan tartibda termik barqarorlik o'zgarishi differensial skanerlovchi kalorimetrik usulda ham kuzatildi.

6. Immobilizatsiya qilingan xitozan granulalari ionitlariga ega bo'lgan tashuvchi yordamida aniqlashning sorbsion - spektroskopik usullari ishlab chiqilib statik sharoitda atrof-muhit ob'ektlari tarkibidagi mis (II) ionlarini tahlil qilishning analitik usullari laboratoriyalar amaliyotiga joriy etildi hamda, «O'zbekneftgaz» AJ «Muborak gazni qayta ishlash zavodi» da dastlabki sinovdan o'tkazildi («Muborak gazni qayta ishlash zavodi» ning 13.07.2022 yildagi 814/GK-07 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, kimyoviy laboratoriyalarda sorbent sifatida ekologik ob'ektlardan mis ionlarini aniqlashda qo'llashga tavsiya qilindi.

7. Xitozan va uning asosida sintez qilingan kompozitsion materiallar (umumiy 4 ta namuna) ning terini regeneratsiya qilish xossalari taqqoslanganda, CS-Se kompozitining yaralarni bitirishdagi faolligi qolgan namunalariga nisbatan ancha yuqori bo'lishi aniqlandi. Olingan natijalar istiqbolda mahalliy xomashyo asosida regeneratsiya qilish xossasini namoyon qiluvchi import o'rnini bosuvchi dorivor preparatlar ishlab chiqishga imkon yaratadi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
НАУЧНОЙ СТЕПЕНИ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
DSc.03/30.09.2020. К.82.02 ПРИ ЧИРЧИКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

ХАБИБУЛЛАЕВА НОЗИМА ФАЗЛИДДИН КИЗИ

**НОВЫЕ ПРОИЗВОДНЫХ ПОЛИАМИНОСАХАРИДОВ: СИНТЕЗ,
СТРОЕНИЕ И ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА**

**02.00.03-Органическая химия
02.00.10-Биоорганическая химия**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Чирчик – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.3.PhD/K533.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (ik-kimyo.nuu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Хаитбаев Алишер Хамидович

Доктор химических наук, профессор

**Официальные
оппоненты:**

Махсумов Абдухамид Гофурович

Доктор химических наук, профессор

Ахмедов Олий Равшанович

Доктор философии химических наук, старший научный сотрудник

Ведущая организация:

Ташкентский Фармацевтический институт

Защита диссертации состоится «___» _____ 2023 г. в ___ часов на заседании Разового Научного совета DSc.03/30.09.2020.K.82.02 по присуждению учёных степеней при Чирчикском государственном педагогическом университете. (Адрес: 111720, Ташкентская область, г.Чирчик, ул. Амира Темура, дом 104. Тел.: (+998) 70-716-68-05; факс: (+998) 70-716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Чирчикского государственного педагогического университета. Адрес: 111720, Ташкентская область, г.Чирчик, ул. Амира Темура, дом 104. Тел.: (+998) 70-716-68-05; факс: (+998) 70-716-68-11 (зарегистрирована за № _____).

Автореферат диссертация разослан «___» _____ 2023 года.
(реестр протокола рассылки № _____ от _____ 2023 года).

О.Э. Зиядуллаев

Председатель разового научного
совета по присуждению учёных
степеней, д.х.н., доцент

Г.К. Отамухамедова

Учёный секретарь разового научного совета
по присуждению учёных степеней, (PhD)
доктор философии по химическим наукам.

А.К. Абдушукуров

Председатель научного семинара
при разовом научном совете по
присуждению учёных степеней
д.х.н., профессор

Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во всем мире возрастает интерес к природным полимерам, используемый в пищевой безопасности, сельском хозяйстве, медицине, фармацевтике и в других областях. В частности, увеличение спроса на продукцию на основе хитина и его производного хитозана, занимающего важное место среди биополимеров, приводит к повышению интереса к поиску и анализу новых источников сырья. Кроме того, наряду с креветками и грибами, большое значение имеет использование насекомых в качестве перспективного и устойчивого источника.

В мире проводятся обширные исследования по получению новых производных хитина и хитозана, изучению их биологической активности и расширению областей использования. В связи с этим особое внимание уделяется синтезу N-алкильных и N-ацилпроизводных с целью повышения их растворимости, повышения биологической активности, получения композитов с биогенными элементами, определения их физико-химических свойств, состава и структуры.

В нашей стране при синтезе новых видов химических веществ конкурентоспособных на мировом рынке достигнуты определенные результаты при эффективном использовании местного сырья и отходов, реализации программы локализации производства, создании методов получения импортозамещающих соединений, проведении научных исследований в области фармацевтики, сельскохозяйственное, химическое и экологическое оздоровление. В Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «О Порядке формирования и реализации Инвестиционной программы Республики Узбекистан» от 14 января 2023 года предусматривает рациональное использование природных, минерально-сырьевых, финансовых, материальных, а также трудовых и других ресурсов предназначенные на долгосрочную перспективу. В Стратегии действий по дальнейшему развитию республики Узбекистан, определены важные задачи, направленные на «производство готовой продукции с высокой добавленной стоимостью на основе глубокой переработки местного сырья, освоение новых видов продукции и технологий в принципе, обеспечивающих конкурентоспособность национальных товаров на внутреннем и внешнем рынках»². В связи с этим научно-практические исследования, направленные на расширение сырьевой базы производства хитозана, разработка технологий синтеза новых производных хитозана, определение их состава, структуры, физико-химических свойств, создание эффективных биологически активных веществ имеет большое практическое значение.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан от 20 апреля 2017 г. УП-2911 «О мерах по созданию

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года №УП-4947 «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан».

благоприятных условий для опережающего развития фармацевтической отрасли Республики», УП-392 от 12 октября 2022 года «О мерах по созданию дополнительных мощностей для обеспечения бесперебойного поступления сырья в промышленное производство», УП-99 от 24 января 2022 года «О мерах по созданию эффективной системы развития производства и расширения производственной кооперации в республике», а также другими нормативно-правовыми документами, принятыми в данной сфере.

Соответствие исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Узбекистана VII. «Химическая технология и нанотехнология».

